

MATN TOPSHIRIQLARI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI  
XALQARO BAHOLASH DASTURIGA TAYYORLASH

Utanbayeva Dildora Abdixadirovna

Guliston davlat pedagogika instituti “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasiga  
katta o‘qituvchisi, p.f.f.d(PhD)

Qurbanboyeva Zuhra Davlatboy qizi

GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14626265>

*Annotation.* Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini PIRLS xalqaro baholash dasturiga tayyorlashda matn topshiriqlarining ahamiyati, badiiy va axborot matnlari bilan ishlash, o‘qish savodxonligi, o‘quvchilar bilan matn ustida ishlashda ahamiyat qaratish lozim bo‘lgan jihatlar, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashda qo‘llaniladigan metodlar bayon qilingan.

*Kalit so‘zlar:* xalqaro baholash dasturi, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, matn, badiiy matn, axborot matni, o‘qish savodxonligi, tushunish darajalari, baholash tizimi, o‘quv materiallari, onlayn maktab, matn bilan ishlash metodi, leksik birliklar bilan ishlash metodi, grammatical sintaktik metod.

**PREPARING PRIMARY STUDENTS FOR THE INTERNATIONAL ASSESSMENT  
PROGRAM BASED ON TEXT-BASED ASSIGNMENTS**

*Abstract.* The article describes the importance of text assignments in preparing primary school students for the PIRLS International Assessment Program, aspects that should focus on working with artistic and informational texts, Reading Literacy, working with students on text, methods used in preparing primary school students for international assessment programs.

*Keywords:* International Assessment Program, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, text, artistic text, information text, reading literacy, comprehension levels, assessment system, teaching materials, online school, text handling method, lexical unit handling method, grammatical syntactic method.

**ПОДГОТОВКА УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К МЕЖДУНАРОДНОЙ  
ПРОГРАММЕ ОЦЕНКИ НА ОСНОВЕ ТЕКСТОВЫХ ЗАДАНИЙ**

*Аннотация.* В статье излагается значение текстовых заданий в подготовке учащихся начальных классов к международной программе оценки PIRLS, работа с художественными и информационными текстами, грамотность чтения, аспекты, на которых следует обратить внимание при работе с учащимися над текстом, методы,

*применяемые при подготовке учащихся начальных классов к международным программам оценки.*

**Ключевые слова:** международная программа оценки, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, текст, художественный текст, информационный текст, грамотность чтения, уровни понимания, система оценки, учебные материалы, онлайн-школа, метод работы с текстом, метод работы с лексическими единицами, метод грамматического синтаксиса.

---

Respublikamizda so‘nggi yillarda til o‘qitish tizimini, nutqni rivojlantirish bo‘yicha yangicha innovatsion texnologiyalarni takomillashtirish, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning bilim egallash imkoniyatlarini yaratish hamda ularning mantiqiy, ijodiy faoliyatini takomillashtirishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. Muhtaram yurtboshimiz “...o‘quvchi va muallimlar bilimini baholashda xalqaro tajribalar (PISA, TIMSS, PIRLS) bosqichma-bosqich joriy etiladi” – deb ta’kidladilar. Natijada yosh avlodning ta’lim-tarbiya-bilimning mushtarak holda mukammal olib borilishi ta’lim oluvchilarning zamonaviy ko‘nikmalarini egallashi, axborotlar bazasini o‘zlashtirishi, mustaqil fikrlay oladigan yoshlarni tarbiyalash imkoniyatlari kengayadi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – xalqaro o‘qish savodxonligini o‘rganishdagi yuksalish) – bu turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu sinov turi har 5 yilda bir marta o‘tkazishga mo‘ljallangan.

Modomiki, PIRLS xalqaro tadqiqotida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy va axborot matnlarini o‘qib tushunish darajalari baholanar ekan umumiy o‘rta ta’lim maktablari ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning matn bilan ishlash, matnni tahlil qilish, matndan xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratishimiz zarur.

Matn bilan ishlashda bir qator muhim vazifalarni bajarish talab etiladi. Badiiy matnda idrokning ongli ravishda (intuitiv) darajasini aniqlash ularda tasavvur faolligi, tasvirlarda fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim sanaladi. Badiiy matn tilining o‘ziga xos xususiyatlarini, badiiy adabiyot qonuniyatlarini tushunish qobiliyati va badiiy matn poetikasi elementlari (janr xususiyatlari, ifoda vositalari, kompozitsiya, badiiy tafsilot) va ularning o‘zaro munosabatini ko‘rish va tushunish anglashiladi:

1. Badiiy matnda mujassamlangan asosiy g‘oya va so‘zlearning ma’nolari hamda matn mazmuni asosida ularda axloqiy qadriyatlarni o‘stirish va badiiy g‘oya negizida mantiqli xulosa chiqarish asosiy o‘rin egallaydi.

2. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini, individual imkoniyatlarini hisobga olgan badiiy matnning o'qib o'z talqinini yaratish qobiliyatiga e'tibor qaratish va fikrning kengligi, ijodiy fikrlashini o'stirishga asoslanadi.

Badiiy o'qish darsiga o'quv predmeti sifatida to'xtaladigan bo'lsak va badiiy matnni o'qish madaniyatining ta'rifi va tarkibiy qismlaridan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash kerakki, boshlang'ich sinflarda zamonaviy badiiy o'qish darsi quyidagilarga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

O'quvchilarning quyidagi qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish lozim:

- adabiy matnni to'liq idrok etish;
- so'zga, intonatsiyalarga, nutq uslublariga hissiy sezgirlik;
- badiiy so'zni majoziy ma'noda konkretlashtirish, "so'zni ko'rish, eshitish va boshqa assotsiatsiyalarga aylantirish" qobiliyati.

Yuqoridaq vazifalarni amalga oshirish uchun o'quvchilar bilan matn ustida ishslash jarayonida interfaol metodlarni qo'llashimiz zarur. Quyida shunday metodlardan keltirib o'tamiz.

**Matn bilan ishslash metodi.** Har bir o'quvchiga quyidagi matnli topshiriqlar tarqatiladi va ularning topshiriqqa bergen javoblari umumlashtiriladi.

3-sinf "O'qish savodxonligi" darsligidagi "Chorining qobiliyati" hikoyasini o'rganishda quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Davron ko'chada to'p tepib ketayotganda Chori nima bilan shug'ullanayotganda edi?
  - A) daraxtdan meva terayotgan edi
  - B) xor jamoasiga qatnashish uchun ketayotgan edi
  - C) bog'da ishlayotgan edi
  - D) futbol o'ynayotgan edi
2. Chori tanlovdan o'ta olmaganini qanday bildi?
  - A) hay'at a'zolari aytishdi
  - B) tanlov natijalari e'lon qilinganidan so'ng
  - C) Jamiladan eshitdi
  - D) hay'at a'zolaridan birining yuzi burishganligidan
3. Hikoyani o'qish orqali siz Chorining xarakteri haqida bilib oldingiz. Sizningcha, Chori qanday bola? Chorining fazilatlaridan birini yozing va javobingizni asoslang.
4. Chori nimani xohlardi?
  - A) futbolchi bo'lishni
  - B) qo'shiq kuylashni
  - C) do'stlarining yonida zo'rligini ko'rsatishni

- E) biror nima bilan faxrlanishni
5. “Chori oyog‘ini sudrab uyga qaytdi” gapining ma’nosini izohlang.
6. Chorining nimaga qobiliyati bor ekan?
- A) bog‘bonlikka
- B) futbolga
- D) qo‘sish quylashga
- E) meva-sabzavot yetishtirishga
7. Chori futbolda qanday natijaga erishdi?
- A) jamoasi g‘olib bo‘ldi
- B) raqib jamoasi uchun gol urdi
- D) futbolchi bo‘lishga qobiliyati borligini aniqladi
- E) futbol o‘ynaganidan charchab oyog‘ini sudrab uyiga qaytdi
8. Sizningcha, hikoya sarlavhasi uning mazmuniga mosmi? Javobingizni asoslang

Baholash mezonlari:

1. D
2. E
3. Fikrni umumlashtirish va sharhlashni talab qiluvchi topshiriq.  
Javoblar: Chori intiluvchan edi. Chunki u qayta-qayta harakat qildi  
Ball berilmaydi: Chorining xarakteri anglashilmaydigan javob berilgan bo‘lsa.  
Topshiriq javobsiz qoldirilgan bo‘lsa.
4. E
5. Matnda berilgan ma’lumotni aniqlash va o‘qish savodxonligini oshirishga undovchi topshiriq.  
Javoblar: Chorining xafa bo‘lganligini ifodalovchi javob berilgan bo‘lsa  
Qabul qilinmaydi: Chorining xafa bo‘lganligi ifodalanmaydigan javoblar.  
Javob berilmagan bo‘lsa
6. A
7. B.
8. Matndan xulosa chiqarish va mulohaza qilishga undovchi topshiriq.  
Javoblar: mantiqli va asosli javoblar qabul qilinadi.  
Qabul qilinmaydi: sarlavha va mazmun o‘rtasida bog‘liqlikni ochib bermagan javoblar.  
Javob berilmagan bo‘lsa.

PIRLS tadqiqotida O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakat nufuzini mustahkamlash bilan birga, o'quvchilar bilimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. Abdikhadirovna, U. D. (2022). Possibilities of improving the methodology of preparing primary class students for the international assessment program based on digital technologies (example of pirls). *Innovation in the modern education system*, 3(25), 159-163.
2. Abdixadirovna, U. D. (2022). Reviews on Preparation for the Pirls International Assessment Program. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 6, 696-700.
3. Abdixadirovna, U. D. (2022). The role of digital pedagogy in the development of student oral and written speech in primary school mother tongue lessonst.
4. Dilrabo, E., & Dildora, U. (2023). Modern Approaches Natural Science Lessons.
5. Omanova M.A. PIRLS xalqaro dasturi asosida 4-sinf o'quvchilarida matnni o'qish va tushunish malakasini rivojlantirish. Maqola. PIRLS xalqaro baholash dasturi: nazariya va tatbiq etish istiqbollari. Xalqaro ilmiy konferentsiyasi materiallari. *Toshkent, 13 mart 2020 yil*
6. Toirova M.E. O'qish savodxonligi. 3-sinf. I qism. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. –T.: Novda edutainment, 2023. -79 b.
7. Utanbaeva, D., & Sodiqboyeva, A. (2024, May). THE USE OF INNOVATIVE TECHNIQUES IN TEACHING TEXT ANALYSIS IN THE LESSONS OF" READING LITERACY. In *NEW RENASSAINCE CONFERENCE* (Vol. 1, No. 3, pp. 156-159).
8. Utanbayeva, D. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINI PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURIGA SAMARALI TAYYORLASHDA BADIY MATNLAR BILAN ISHASHNING AHAMIYATI. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(4), 27-31.
9. Utanbayeva, D. (2024). BOSHLANG 'ICH SINF "O 'QISH SAVODXONLIGI" DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASHDA SAVOL-TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI. *Modern Science and Research*, 3(10), 485-490.
10. Utanbayeva, D. A. (2020). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI ONA TILI TA'LIMI JARAYONIDA MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH. In *МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ* (pp. 236-239).

11. Utanbayeva, D., & Sa'dullayeva, D. (2024). CONTENT OF TEACHING ELEMENTARY STUDENTS TO ANALYZE THE TEXT IN THE LESSONS OF " READING LITERACY". *Modern Science and Research*, 3(5), 759-762.
12. Маранцман, В.Г. Труд читателя: От восприятия литературного произведения к анализу / В.Г. Маранцман. - М. : Просвещение, 1996. - 124 с.
13. Методика преподавания литературы: Учебник для пед. вузов / Под ред. О.Ю. Богдановой, В.Г. Маранцмана : В 2 ч. - Ч. 1. - М. : Просвещение, 1994. - 286 с.